



Evolution of mythical and historical heroes in Western and Eastern literature

Umida NASRULLAYEVA¹

Namangan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

15 November 2024

Keywords:

Legendary heroes,
historical heroes,
Eastern literature,
Western literature,
evolution,
culture.

ABSTRACT

In Eastern and Western literature, the images of legendary and historical heroes reflect the cultural and historical development of society. This article analyzes the processes of formation, development and change of these images. In Eastern literature, heroes, created on the basis of the history and religious traditions of their people, usually promote goodness and justice, while in Western literature, heroes are a symbol of personal freedom, courage and individualism. The article studies the evolution of these heroes through the analysis of literary sources from different periods.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6-pp153-157>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

G'arb va sharq adabiyotida afsonaviy va tarixiy qahramonlar evolyutsiyasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

afsonaviy qahramonlar,
tarixiy qahramonlar,
Sharq adabiyoti,
G'arb adabiyoti,
evolyutsiya,
madaniyat.

Sharq va G'arb adabiyotida afsonaviy va tarixiy qahramonlar obrazlari jamiyatning madaniy va tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi. Ushbu maqolada mazkur obrazlarning shakllanishi, rivojlanishi va o'zgarishi jarayonlarini tahlil qilinadi. Sharq adabiyotida o'z xalqining tarixi va diniy an'analari asosida yaratilgan qahramonlar odatda ezgulik va odillikni targ'ib qilsa, g'arb adabiyotida esa qahramonlar shaxsiy erkinlik, jasorat va individualizm timsolidir. Maqolada turli davrlardagi adabiy manbalar tahlili orqali bu qahramonlarning evolyutsiyasi o'rganilgan.

¹ Teacher, Namangan State Institute of Foreign Languages. E-mail: umidanasrullayeva@gmail.com

Эволюция мифических и исторических героев в западной и восточной литературе

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

легендарные герои,
исторические герои,
восточная литература,
западная литература,
эволюция,
культура.

В восточной и западной литературе образы легендарных и исторических героев отражают культурно-историческое развитие общества. В данной статье анализируются процессы формирования, развития и изменения этих образов. В восточной литературе герои, созданные на основе истории и религиозных традиций своего народа, обычно пропагандируют добро и справедливость, тогда как в западной литературе герои являются символом личной свободы, мужества и индивидуализма. В статье изучается эволюция этих героев посредством анализа литературных источников разных периодов.

KIRISH

Adabiyot inson tafakkurining tarixi bo'lib, unda xalqlar hayoti, urf-odatlar, qadriyatlar va orzu-umidlari aks etadi. G'arb va Sharq adabiyotlari o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Sharq adabiyotida ramziy va didaktik qahramonlar ko'proq uchrasa, G'arb adabiyotida individualizm va realistik obrazlar ustunlik qiladi. Har ikki mintaqaning afsonaviy va tarixiy qahramonlari vaqt o'tishi bilan o'zgarib, davr talablari, ijtimoiy sharoit va inson qarashlariga muvofiq ravishda evolyutsiyalashdi.

Qahramonlik motivlari adabiyotning eng qadimiy va eng dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Sharq va G'arb adabiyotida afsonaviy va tarixiy qahramonlar ijodiy mahsulot sifatida shakllanib, jamiyatning axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarini ifodalashda muhim rol o'ynagan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Afsonalar har bir xalqning madaniy merosida muhim o'rin tutadi. Ular ko'pincha insoniyat tarixining ibtidoiy bosqichlarida vujudga kelib, xalqning e'tiqodi va dunyoqarashini ifodalaydi. Adabiy qahramonlar ikki asosiy toifaga bo'linadi [7]: Afsonaviy qahramonlar – xalq e'tiqodlari, mifologiyasi va badiiy ijod mahsuloti bo'lgan obrazlar. Ular odatda ilohiy kuchlar yoki mifoepek voqealar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Sharqda "Rustam" yoki G'arbda "Gerakl". Tarixiy qahramonlar – real tarixiy shaxslar asosida yaratilgan obrazlar, lekin ularning hayoti adabiy dramatisatsiyaga ega bo'ladi. Masalan, Sharqda Amir Temur, G'arbda esa Napoleon. Bu toifalar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha tarixiy qahramonlar afsonaviy tusga ega bo'ladi yoki aksincha, afsonaviy obrazlar tarixiy voqealar asosida qayta talqin qilinadi.

Sharq adabiyotida qahramonlar ko'pincha yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashda asosiy rolni o'ynaydi. Ularning jasorati, adolatligi va kuch-qudrati ideal inson sifatida tasvirlanadi [1]. Masalan: Rustam – "Shohnoma" dostonining qahramoni. Rustam jasur, qudratli va xalq himoyachisi sifatida gavdalangan. Alpomish – o'zbek xalq eposidagi yurt tinchligi va adolat uchun kurashuvchi qahramon. Afsonaviy podsholardan Amir Temur obrazi ham tarixiy, ham afsonaviy qahramon sifatida tilga olinadi. Imom Al-Buxoriyni esa, tarixiy va diniy qahramon sifatida Sharq adabiyotida ulug'langan. Sharq adabiyotida tarixiy qahramonlar ko'pincha milliy va diniy qadriyatlarni ulug'lash vositasi sifatida ishlatilgan.

G'arb adabiyotida afsonaviy qahramonlar ko'proq shaxsiy qahramonlik, individualizm va muammolarni yengishda jasorat ko'rsatish bilan ajralib turadi [1]: Achilles – "Iliada" dostonining markaziy qahramoni bo'lib, Gomer tomonidan tasvirlangan yunon jangchisi. Odissey – aqlli va tadbirkor qahramon sifatida mashhur bo'lgan. Qirol Artur va davra suhbatlari – o'rta asrlarda G'arbda adolat va ritsarlik ruhining ramzi sifatida ko'riladi. Beovulf esa, Anglosakson eposidagi qahramon bo'lib, u yovuzlikka qarshi kurashning timsoli hisoblanadi.

Sharq qahramonlari ko'proq jamoatchilik manfaatini himoya qiluvchi, yurtparvar obrazda gavdalangan bo'lsa, G'arb qahramonlari individuallik va shaxsiy qahramonlik xususiyatlariga ega [3].

Sharq afsonalari ko'pincha diniy va axloqiy mazmun bilan boyitilgan, G'arb afsonalari esa insonning tabiiy imkoniyatlari va kamchiliklariga e'tibor qaratadi.

Tarixiy qahramonlar real hayotda mavjud bo'lgan shaxslar asosida yaratilgan bo'lib, ular vaqt o'tishi bilan badiiy obrazlar orqali adabiyotda o'z aksini topgan. Sharq tarixiy qahramonlari aksariyat hollarda xalqlar birligi, yurt ozodligi va adolat uchun kurashuvchi shaxslar sifatida tasvirlangan [6]. Masalan:

Amir Temur – u faqat tarixiy shaxs emas, balki afsonaviy qahramon sifatida o'zining ulug'vorligi, dono siyosiy strategiyasi va jasorati bilan nafaqat tarixiy shaxs sifatida, balki afsonaviy qahramon darajasiga ko'tarilgan buyuk shaxsdir. Uning hayoti va faoliyati Sharq va G'arb adabiyotida ko'plab asarlar va afsonalar uchun ilhom manbai bo'lgan. Uning jasorati, dono rahbarligi haqida ko'plab asarlar yaratilgan. Amir Temurning nafaqat o'z davrida, balki keyingi avlodlar orasida ham kuchli tarixiy va afsonaviy meros qoldirgani uning shaxsiyati naqadar buyuk ekanligini tasdiqlaydi.

Jaloliddin Manguberdi – mo'g'ullarga qarshi kurashgan qahramon sifatida xalq og'zaki ijodida tarannum etilgan. U o'zbek xalqi tarixida va madaniyatida o'chmas iz qoldirgan jasoratli qahramon. U Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori sifatida o'z davrida mo'g'ul istilochilariga qarshi kurash olib borgan va mustaqillik uchun jonbozlik ko'rsatgan. Jaloliddin Manguberdi nafaqat tarixiy shaxs sifatida, balki xalq og'zaki ijodida afsonaviy qahramon sifatida ham ulug'langan.

Navoiyning Xamsa'sidagi so'nggi dostoni "Saddi Iskandariy"si – tarixiy shaxs Iskandar obrazini badiiylashtirilgan. Navoiy Iskandarni faqat jangovar qudrat egasi sifatida emas, balki adolatli rahbar sifatida tasvirlaydi. U dunyodagi xalqlarni zabt etishda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashni bosh maqsad qilib qo'yadi. Uning harbiy yurishlari zulm yoki boylik orttirish uchun emas, balki insonlar orasida tinchlik o'rnatish va taraqqiyotni yoyish uchun amalga oshiriladi. Misol uchun, dostonning bir qismida Iskandar xalqning manfaatlari yo'lida qiyinchiliklarni yengib o'tadi va kambag'al tabaqaga yordam beradi. Bu obraz Navoiyning adolat va insonparvarlik haqidagi qarashlarini aks ettiradi [4].

G'arb tarixiy adabiyotida qahramonlar ko'pincha real voqealarga yaqinroq tasvirlanadi, ammo ba'zida ular afsonaviy tus oladi:

Yuliy Sezar – Shekspir asarlarida Sezar jasur, ammo kibru havo qurboni bo'lgan tarixiy qahramon sifatida gavdalangan. "Yuliy Sezar" tragediyasi Shekspirning tarixiy shaxs – Rim imperatori Yuliy Sezarning obrazi orqali inson tabiatidagi ziddiyatlarni mahorat bilan yoritib bergan asarlaridan biridir. Shekspir bu asarida Sezarning kuchli xarakterini va insoniy zaifliklarini birlashtirib, tarixiy voqeani abadiy falsafiy mazmun bilan boyitgan. Asar inson tabiati, hokimiyat va xiyonat kabi mavzularga teran yondashib, adabiyot va tarix ixlosmandlarini o'ylashga undaydi [8].

Ioanna d'Ark (Jeanne d'Arc) – fransuz xalqining milliy qahramoni, G'arb adabiyotida diniy qahramon sifatida talqin qilingan. XV asrda yuz bergan Yuz yillik urush davrida Ioanna d'Ark o'zining harbiy jasorati va vatanparvarligi bilan Fransiyaning bosqinchi inglizlardan ozod etish yo'lida katta hissa qo'shgan. Uning diniy e'tiqodi, ruhiy jasorati va qismati nafaqat tarix, balki adabiyot, san'at va falsafada ham keng yoritilgan [9].

Napoleon – tarixiy shaxs bo'lishiga qaramay, adabiyotda murakkab va ko'p qirrali qahramon sifatida ko'riladi. U tarixiy shaxs sifatida Fransiyaning buyuk sarkardasi va siyosatchisi, Yevropa tarixida chuqur iz qoldirgan imperator. Ammo uning shaxsiyati va faoliyati o'zidan keyingi davrlarda adabiyotda ham keng aks etgan. Napoleon obrazi ko'p qirrali va murakkab bo'lib, u ko'pincha ijobiy va salbiy jihatlarining uyg'unligi orqali tasvirlanadi. Adabiyotda u ba'zan buyuk yetakchi, ba'zan esa ambitsiyalari qurboni bo'lgan fojiali shaxs sifatida ko'riladi [10].

Sharq tarixiy qahramonlari ko'proq milliy g'urur va birlik timsoli sifatida tasvirlangan. G'arb tarixiy qahramonlari esa murakkab shaxs sifatida, ijobiy va salbiy fazilatlar bilan yoritiladi.

Qahramonlar obrazlari har bir davrda o'zgarib borgan, ya'ni vaqt o'tishi bilan afsonaviy va tarixiy qahramonlar tasviri evolyutsiyaga uchradi. Bu o'zgarishlar ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar bilan bog'liq. Masalan: sharqda qahramonlar aksar hollarda xalqning umumiy manfaatlarini ifodalashga yo'naltirilgan. G'arbda qahramonlar individual erkinlik va shaxsiy intilishlarni targ'ib qiladi.

Zamonaviy adabiyotda qahramonlik tushunchasi ham o'zgarib, an'anaviy "qudratli qahramon" o'rniga, ichki kurashlar va insoniy zaifliklarni yenguvchi obrazlar paydo bo'ldi. G'arb adabiyotida: qahramonlar insoniy zaifliklari va murakkabliklari bilan tasvirlanadi (masalan, Hemingueyning qahramonlari). Sharq adabiyotida esa, qahramonlar ma'naviyat, ramziy tasvirlar orqali yangilanmoqda (masalan, O'zbekiston adabiyotida yangi davr qahramonlari).

Quyidagi jadval adabiy asarlarni tahlil qilish orqali Sharq va G'arb adabiyotidagi afsonaviy va tarixiy qahramonlarning xususiyatlarini tushunishga yordam beradi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Xususiyatlar	Sharq adabiyoti	G'arb adabiyoti
Afsonaviy qahramonlar	Jamoaviy axloqiy qadriyatlarini ifodalash	Individual muvaffaqiyatni ulug'lash
Tarixiy qahramonlar	Diniy va milliy qadriyatlar bilan bog'liq	Siyosiy erkinlik va jasorat timsoli
Uslub	Poetika va mifoepika boyligi	Realizm va drammatizm

Sharq va G'arb adabiyotidagi afsonaviy va tarixiy qahramonlarning obrazlari madaniy, ijtimoiy va tarixiy taraqqiyotning ifodasi sifatida shakllangan. Sharq qahramonlari milliy va diniy qadriyatlarini aks ettirsa, G'arb qahramonlari individualizm va pragmatizmni ifodalaydi.

XULOSA

G'arb va Sharq adabiyotlaridagi afsonaviy va tarixiy qahramonlar xalqlarning o'ziga xos dunyoqarashi, tarixi va madaniyatini aks ettiradi. Sharqda qahramonlar ko'proq jamoatchilik manfaatini ko'zlab kurashuvchi yurtparvar sifatida tasvirlangan bo'lsa,

G'arbda individualizm va shaxsiy qahramonlik ko'proq namoyon bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan qahramonlar tasviri o'zgarib, ularning insoniy tomonlari ko'proq yoritila boshladi. Bugungi kunda har ikki mintaqa adabiyotida qahramonlik tushunchasi yangi talqinlarda namoyon bo'lib, inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aliyarovich, A. A. (2023). O'ZBEK XALQ DOSTONLARI KLASSIFIKATSIYASI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 19(3), 142-145.
2. Minavvarxon, U., & Muhammadaminovich, M. A. (2024). PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O 'RNI, MAQSADI, VAZIFALARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(26), 165-168.
3. Мухамедова, С. (2022). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA FANTASTIKA JANRI XUSUSIYATLARI. In Евразийский перекресток (pp. 58-63).
4. Navoiy, A. (1991). Saddi Iskandariy. Tola asarlar toplami, 10.
5. Tojiboyeva, O. (2020). "Iskandarnoma" larning nasriy manbalari xususida. Oltin bitiglar–Golden Scripts, 4(4).
6. Tursinbaevish, S. A. (2023). XALQ DOSTONLARINING O'RGATISHNI AMALIY ANAMIYATI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 26(2), 74-78.
7. Улугов, А. (2024). Adabiy qahramon obrazi. Узбекистан: язык и культура, 1(1), 4-32.
8. Shekspir V. Yuliy Sezar. Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 1990.
9. Taylor, L. Joan of Arc in History, Literature, and Film. New York: Routledge, 2013.
10. Sulaymonova, N., & Yoqubov, I. (2023). FYODOR DOSTOYEVSKIYNING INTELLEKTUAL ADABIY QAHRAMON YARATISH USLUBI. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1).